

OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKARINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.09.2023, PED.173.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALI K ILMiy KENGASH

QOHI NIVOZIV NOMIDAGI TARBIIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI

QODIROV G'AYRAT O'ROQBOEVICH

EVRIK TOPSHIRIQLAR YORDAMIDA BO'LAJAK
O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 371.126

Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
по педагогическим наукам

Table of contents of the abstract of the doctoral dissertation (DSc)
in pedagogical sciences

Qodirov G'ayrat O'roqboevich Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	3
Кодиров Гайрат Урокбоевич Механизмы развития профессиональных компетенций у будущих педагогов с помощью эвристических заданий.....	29
Qodirov G'ayrat O'roqboevich Mechanisms for the development of professional competencies of future teachers with the help of heuristic tasks.....	57
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	62

OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIV DARAJALAR
BERUVCHI PHD.03/30.09.2023. PED.173:01 RAQAMLI ILMIV KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIV KENGASH

QORI NIYOZIV NOMIDAGI TARBIVA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI

QODIROV G'AYRAT O'ROQBOEVICH

EVRIK TOPSHIRIQLAR YORDAMIDA BO'LJAJAK
O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI



Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Ped13 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Nijoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "Ziyo.NET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibraimov Xolboy Ibragimovich
pedagogika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponenlar:

Zariyov Lochin Rustamovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Qodirov Hayot Sharipovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173-01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "26" dekabr kuni soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 203-01-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "14" dekabr dagi 9 - raqamli reyestr bayonnomasi).

U.Sh. Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

A. Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ya.O. Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor



KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni evristik ta'lim bilan qamrab olish, evristik izlanishlarni amalga oshirishga undash mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu maqsadga evristik vositalarni qo'llash orqali talabalarining kasbiy bilimlari va kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda evristik topshiriqlardan foydalanish modellari takomillashirish ta'lim oluvchilar egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalarni guruhlashtirish, induktiv, deduktiv, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ salohiyatini takomillashirishga qaratilgan amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'lim-tarbiya tizimi, rivojlantirish mutaxassisidan alohida bilim va kompetensiyalarni egallashini ta'minlash, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda evristik izlanish xarakteridagi topshiriqlardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, evristik topshiriqlar va metodlar yordamida ta'lim oluvchilarni faollashtirish va intellektual rivojlantirish, shuningdek evristika, evristik metodlarni qo'llash va evristik ta'lim muammolariga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini evristik topshiriqlar yordamida rivojlantirish inkoniyatlarini aniqlash, bu sohadagi nazariy yondashuvlarni umumlashtirish, evristik topshiriqlar yordamida talabalarni kasbiy faollashtirish, o'quv dasturlarini modernizatsiyalash, metodik ta'minotni takomillashirish, o'quv modullarining funksional ahamiyatini oshirish, oliy pedagogik ta'lim jarayoniga evristik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarni munosib ishtirokini ta'minlash, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda pedagogik oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash yo'nalishida "...pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga talabalarda mustaqil ta'lim olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikalarni joriy qilish"ni vazifalari belgilamb, bu borada ta'lim tizimida evristik ta'lim jarayonini tashkil etish, uning pedagogik ta'minotini yaratish, o'quvchilarning kreativ fikrlash faoliyatini rivojlantirishda evristik topshiriqlar va metodlardan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi 60-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari ta'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/tv/docs/6079561>

“2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi, 2020 yil 29-oktyabrda PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2019 yil 8-oktyabrda PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2020 yil 27-fevralda PQ-4623-son “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2018 yil 14-avgustda PQ-3907-son “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017 yil 20-aprelda PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarida evristik ta'lim, evristik o'qitish texnologiyalari, evristik metodlar yordamida bo'lajak mutaxassislarining kreativligini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Ukrainaning Donekiy milliy universitetida “Evristik o'qitishni rivojlantirish”, Rossiya ta'lim Akademiyasida “A.V.Xutoriskoyning evristik pedagogik ilmiy maktabi forumi” (2006-2009), Estoniyaning Tartu universitetida “Evristik o'qitish evolyusiyasi” ilmiy tadqiqot loyihasi, Fransiya Fanlar Akademiyasi tomonidan boshqarilgan Yevropaning 12 ta davlati ishtirok etgan evristik ta'lim metodologiyasini rivojlantirishga qaratilgan “Pollen” ilmiy loyihasi, AQShda “10 ta'limiy g'oya” (2015), Angliyaning Kembrij universitetida “Empatiya ta'limi metodikasi”, “Barqaror rivojlanish uchun intellektual layoqatlar” loyihasi doirasida impakt, kompass, bugalert loyihalari amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Evristik topshiriqlar va metodlar yordamida ta'lim oluvchilarni faollashtirish va intellektual rivojlantirishda sharh mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Aziziddin Nasafiy, Mirzo Ulug'beklarning asarlarida keltirib o'tilgan. Mamlakatimiz etuk olimlari R.G.Safarova, B.R.Adizov, M.Mahmudov, R.Ibragimov, B.Xodjaev, G'.Nafasov, X.P.Nazarova, R.Nurjanova, F.M.Qo'chqorova, N.G'.Dilova, D.J.Gaipov, B.S.Abdullaeva, N.A.Muslimov, X.I.Ibraimov, B.Ma'murov, G.Ibragimova, M.Davlatshin, E.G'ozievlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)dan A.V.Xutorskiy, V.I.Andreev, G.A.Andrianova, I.V.Aksenova, G.Armstrong, S.S.Bakulevskaya, T.A.Batyaeva, N.V.Bugorskaya, G.Ya.Bush, I.A.Valeeva, V.N.Voronin, R.F.Galiyaxmetova, M.N.Eroxina, P.F.Kapterev, A.V.Kachalov, A.D.Korol, O.O.Makaricheva,

N.V.Matekiy, V.N.Sokolov, K.P.Fedorov, G.V.Abramyan, G.M.Kuleshova, T.A.Ilina, G.G.Vorobevning, D. I. Vodzinskiy, Ye.V.Damianova, M.M.Levina, Ye.A.Pchelina, Ye.V.Sherstovalarning ilmiy ishlari va monografiyalarida tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan A.Giddens, A.Hargreaves, H.D.Shmid, R.Sears, Jantine L.Spilt, G.Wegner, H.Widdellarning tadqiqotlarida evristika, evristik metodlarni qo'llash va evristik ta'lim muammolari o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2017-2020 yillarga mo'ljallangan FZ-2016-0909111822-son “Darslik va o'quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o'quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini, metodlari va texnologiyalarini takomillashtirish;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tarixiy-nazariy bosqichlari va strategiyalarini aniqlash;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining modeli va uni amaliyotga tadbiq etish mexanizmlari va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Jizzax davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika institutining jami 470 ta respondentlari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti. Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini mexanizmlarini taomillashtirishning rivojlantirish shakli, metod vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, sotsiometrik (subbat, anketa, test, intervyu); pedagogik eksperiment, tajriba-sinov; psixologik-pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, monitoring, matematik-statistik tahlil;

natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari shaxsning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, mustaqillik, kreativlik, kreativ faoliyat tajribasiga ega bo'lishga intilish hamda kasbiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida aniqlashdirilgan;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'quv modullarini evristik yondashuv asosida boyitish, ta'lim jarayoniga evristik topshiriqlarni bajarish imkonini beradigan induksiya, deduksiya, mantiqiy fikrlash izchilligini ta'minlash, modellashtirish, transformiyalash, g'oyalarni genersiyalashga oid o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida takomillashdirilgan;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, metodlari, texnologiyalari ijtimoiy tajribani faollashtirish, obrazli ko'rish, ramziy ko'rish, qiyoslash, evristik tadqiqot, farazlarni ilgari surish, prognozlash, inversiya, sinektika metodlar va evristik ta'lim, loyihalash, muammoli-modulli o'qitish, modellashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv, reproduktiv, motivatsion xarakterdagi pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqilgan;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dastlabki evristik faoliyatni amalga oshirish, ijodiy loyihalash, reflektiv tadqiqotchilik va evristik ta'lim bosqichlari hamda funksional-maqсадli tahlil, ilmiy axborotlardan foydalanish, baholovchi hukmlar chiqarish, qarorlar qabul qilish strategiyalarini qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutgan holda o'quv jarayonining tarkibiy tuzilishi takomillashdirilgan;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli kognitiv, kreativ, progmatik xarakterdagi evristik topshiriqlarni qo'llash metodlari, texnologiyalarini o'zida mujassamlashtirgan modulli jarayonni qamrab olishni nazarda tutgan hamda mezon indikatorlarining samaradorligini aniqlash, evristik topshiriqlar va metodlarning reprezentativligini statistik baholashlar yordamida ko'rsatib berish asosida takomillashdirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

evristik topshiriqlarni bajarish imkonini beradigan metodlar, pedagogik shart-sharoitlar, texnologiyalar ishlab chiqilgan;

bo'lajak, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini evristik topshiriqlar yordamida rivojlantirish bosqichlari aniqlangan;

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining modeli takomillashdirilgan;

talabalarda evristik topshiriqlar yordamida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezon-indikatorlar ishlab chiqilgan;

“Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy

kompetensiyalarini rivojlantirish” nomli o'quv-uslubiy qo'llanma yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliliigi: tadqiqot etilayotgan muammoga falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko'ra tasdiqlanadi. Shuningdek, tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, loyihalashning mantiqiyliigi, tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, MDHning yetakchi ta'lim muassasalarida stajirovka o'tash hamda pedagogik evristika yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari va ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelining ishlab chiqilganligi tadqiqot natijalarining ishonchliliigi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilganligi; evristik topshiriqlar vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni aniqlanganligi; evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik imkoniyatlari nazariy jihatdan asoslanganligi; evristik texnologiyalarning guruhlanganligi va tizimlashtirilganligi va uni oliy pedagogik ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmlarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni amalga oshirish usullari, metodlari va texnologiyalarini aniqlanganligi, ulardan foydalanish yo'llari va shartlarining ko'rsatilganligi; evristik topshiriqlarni bajarish natijasida talabalarda shakllanadigan bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy kompetensiyalarning amaliy jihatdan tavsiflanganligi; “Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” nomli o'quv-uslubiy qo'llanma va “Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari” nomli monografiyaning pedagogik amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir natijalar asosida:

evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari shaxsning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, mustaqillik, kreativlik, kreativ faoliyat tajribasiga ega bo'lishga intilish hamda kasbiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida aniqlashdirilishga oid takliflardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan FZ-2016-0909111822 - raqamli “Darslik va o'quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali

o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan. Natijada: bo'lajak o'qituvchining qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, mustaqillik, kreativlik, kreativ faoliyat tajribasiga ega bo'lishga intilish, kasbiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirilishiga erishilgan.

Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'quv modullarini evristik yondashuv asosida boyitish, ta'lim jarayoniga evristik topshiriqlarni bajarish imkonini beradigan induksiya, deduksiya, mantiqiy fikrlash izchilligini ta'minlash, modellashtirish, transformiyalash, g'oyalarni genersiyalashga oid o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid takliflardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan FI-XT-1-31247-raqamli "O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi" (2012-2016 yy.) loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada: ta'lim jarayoniga evristik topshiriqlarni bajarish imkonini beradigan induksiya, deduksiya, mantiqiy fikrlash izchilligini ta'minlash, modellashtirish, transformatsiyalash, g'oyalarni genersiyalashga oid o'quv faoliyatini rivojlantirilgan.

Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, metodlari, texnologiyalari ijtimoiy tajribani faollashtirish, obrazli ko'rish, ramziy ko'rish, qiyoslash, evristik tadqiqot, farazlarni ilgari surish, prognozlash, inversiya, sinertika metodlar va evristik ta'lim, loyihalash, muammoli-modulli o'qitish, modellashtirish, shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv, reproduktiv, motivatsion xarakterdagi pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqilgan takliflardan FIXT-1-55237-raqamli "Pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va unifikatsiyalash parametrlari" mavzusida loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. Natijada: evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi ortgan.

Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning dastlabki evristik faoliyatni amalga oshirish, ijodiy loyihalash, reflektiv tadqiqotchilik kabi evristik ta'lim bosqichlari hamda funksional-maqsdali tahlil, ilmiy axborotlardan foydalanish, baholovchi hukmlar chiqarish, qarorlar qabul qilish strategiyalarini qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga oid tavsiyalardan FZ-2016-090911182-raqamli "Darslik va o'quv adabiyotlar mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan. Natijada: evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish tarixiy-nazariy bosqichlari va strategiyalarini aniqlashga erishilgan.

Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli kognitiv, kreativ, pragmatik xarakterdagi

evristik topshiriqlarni qo'llash metodlari, texnologiyalarini o'zida mujassamlashtirgan modulli jarayonni qamrab olishni nazarda tutgan hamda mezon indikatorlarining samaradorligini aniqlash, evristik topshiriqlar va metodlarning reprezentativligini statistik tahlillar yordamida ko'rsatib berish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan FIXT-1-55237-raqamli "Pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va unifikatsiyalash parametrlari" mavzusida loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan Natijada: evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining model va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari samaradorligini aniqlash imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 4 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan anjumanlarda muhokama qilindi va ma'qullandi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g'oya va natijalari 1 ta monografiya, 15 ta maqola, shundan 4 ta xorijiy va 11 ta OAK tasarrufidagi respublikamiz ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, 10 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan hamda ilovalardan iborat bo'lib, uning asosiy matni 206 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida Dissertatsiya mavzusining dolzarbliigi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik zaruriyat ekanligi, evristik ta'lim evolyutsiyasi, evristik o'qitishning nazariy-pedagogik asoslari, pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlangan va bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilar evristik topshiriqlar yordamida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va faol ijodkorlikka yo'naltirilgan amaliy harakat mexanizmlari shakllantirish alohida dolzarblilik kasb etishi va pedagogik-ijtimoiy zaruriyat sifatida namoyon bo'lganligi asoslangan.

Evristik ta'lim o'zining uzoq rivojlanish yo'liga ega. U o'zida evristik topshiriqlar, evristik metodlar, evristik savollar, texnologiyalar va subhatlarni mujassamlashtiradi. Evristik ta'lim ilk bor o'zaro bir biri bilan bog'langan, ta'lim oluvchilarni ijodiy izlanishga undaydigan savollardan iborat bo'lgan. Bunday

savollarga talabalar chuqur o'yilash, izlanish natijalariga tayangan holda javob qaytarganlar. Mutafakkirlar o'z pedagogik ta'limotlarida evristik subhatlar va evristik savollarga alohida e'tibor qaratganlar. Bunda ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi mahsuldor izlanishlarga undovchi topshiriqlarga alohida o'rin tutgan.

Evristik yondashuvlar, birinchi navbatda matematika, falsafada topshiriqlar va masalalarni yechishning universal metodlarni izlash bilan xarakterlanadi. Keyinchalik ushbu metodlar majmui evristika atamasi bilan nomlangan. Ushbu yo'nalish namoyandalari sifatida tanikli mutaxassislar va ko'plab sharq allomalarni ko'rsatib o'tish mumkin: Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, al Xorazmiy, Zamaxshariy, Bahouddin Naqshbandiy va g'arblilik buyuk olimlar R.Dekart, G.Leybnis, B. Bolsano va boshqalar.

Evristik topshiriqlardan talabalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, nostandart qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytirishga foydalanish nazarda tutilgan.

Davrlar o'tishi bilan evristik topshiriqlar barcha fanlarni o'qitish jarayonida keng qo'llanilgan. Ular yordamida talabalarining ijodiy fikrlash faoliyati va ijtimoiy tajribasini kengaytirishga erishilgan. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatni egallash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish bugungi kunda murakkab pedagogik vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi natijalarga erishishlari nazarda tutiladi.

1. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga xos bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish;
2. Kasbiy bilimlarni taqdim etish jarayonini innovatsion yondashuvlarga tayangan holda amaga oshirish;
3. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini egallashlarini jadallashirish maqsadida evristik savol va topshiriqlardan foydalanish.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun evristik topshiriqlar alohida samaradorlikka ega. Evristik topshiriqlar o'zaro aloqadorlikka ega bo'lib, bir birini taqozo etadi. Ushbu topshiriqlarning har biri talabani muammoning yechimiga yaqinlashtiradi. Evristik topshiriqlarning xarakterli jihati shundaki, bu bo'lajak o'qituvchilarni izlanish va kasbiy ijodkorlikka undaydi. Evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni egallash, kasbiy mahorat sirlaridan xabardor bo'lish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Professor-o'qituvchilar evristik topshiriqlarni tanlash va tizimlashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarishlari talab qilinadi:

- a) bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlari va shaxsiy tajribalarini boyitish; b) bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni tizimli tarzda shakllantirish; v) talabalarining kasbiy bilimlarni ijodiy izlash va qo'llash mustaqilliklarini ta'minlash; g) mahsuldor faoliyat ko'rsatadigan ijodkor o'qituvchi shaxsni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish kabilar.

A.V.Xutorskoy evristik ta'lim haqida o'z qarashlarini bayon qilib evristik metodlar va topshiriqlarni tasniflashga muvaffaq bo'lgan. A.V.Xutorskoyning

ta'biricha, evristik o'qitishning metodi quyidagi guruhlarga bo'linadi. Ular: tashkiliy-faoliyatli, kognitiv hamda kreativ metodlardan iborat.

Evristik o'qitish metodi bir tomondan ilmiy tadqiqot metodi bo'lsa, ikkinchi tomondan o'qitish metodi hisoblanadi. Ushbu metod kashfiyotlar qilishga yo'l ochadi. Qadimgi yunonlar o'quv jarayoniga evristik savollari bilan topshiriqlarni kiritganlar. Bunday metod va topshiriqlar mantiqiy usullar majmuidan iborat bo'lgan. Evristik topshiriqlar ijodiy xarakterdagi tadqiqotchilik faoliyatining metodologik asosini tashkil etadi.

Evristik o'qitish o'zining bir qator funksiyalariga ega:

- ta'lim oluvchilarni bilimlar va harakat usullarini mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish; ijodiy tafakkuri rivojlantirish hamda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarga ko'chirish ko'nikmasini shakllantirish; an'anaviy vaziyatlarga yangi muammolarni kiritish imkoniyatini yaratish; o'rganilayotgan mavzuning yangi imkoniyatlarini ochib berish; ma'lum metodlarni ta'lim oluvchilar faoliyatiga transformatsiya qilish hamda yangi mustaqil tarzda mahsulotlar yaratish; talabalarni faol bilishga asoslangan muloqot usullari bilan tanishtirish; talabalarda o'quv hamda muvaffaqiyatga erishish motivlarini hosil qilish.

Evristikaning o'ziga xosligini aniqlash uchun uning ikki xil izohiga e'tibor qaratish lozim.

1. Evristika shaxsning izlanishga asoslangan faoliyati bo'lib, murakkab, nostandart muammolarning yechimini topishga olib keladi.

2. Evristika shaxsning o'zi uchun shakllantirilgan muammolarni yechishning xususiy usuli bo'lib, mazkur usullarni evristik topshiriqlarni yechishda ham qo'llash imkoniyati mavjudligini anglatadi.

Evristik metodning pedagogik ahamiyati talabaning kasbiy moyilligi, qiziqishlari va iqtidorini to'yogga chiqarishdan iborat. Evristik texnologiyalar talabning mantiqiy fikrlash jarayoni, ijodiy imkoniyatlarini faollashtirishga yo'naltirilganligi bilan xarakterli. Evristik topshiriqlar va texnologiyalar o'zining maxsuldorligi bilan ajralib turadi. Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-ijtimoiy tajribani o'zlashtirish imkoniyatlari kengayadi. Evristik topshiriqlarni qo'llagan holda tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy bilimlarni mustaqil qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bizning fikrinizcha evristik topshiriqlar quyidagi pedagogik xususiyatlarga ega:


o'quv-biluv harakatlarni kengaytirish, unga ijodiy xarakter bag'ishlash; evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik faoliyatning bir necha usullarini shakllantirish imkonini beradi; evristik topshiriqlarning ochiq xarakterga ega ekanligi va javoblarning ko'p variantlilikini ta'minlash imkoniyatini beradi; bo'lajak o'qituvchilarning ko'p variantli javoblardan maqbul javobni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishlari ta'minlanadi; evristik topshiriqlarning muammoli vaziyatlarni yaratish imkoniyatiga ega ekanligi; bo'lajak o'qituvchining pedagogik muammolarga yechim izlashga yo'naltirilgan faoliyatini jadallashirish; pedagogik muammolar yechimining alternativ usullarini izlashga bo'lajak o'qituvchilarni undashi; evristik

topshiriqlar talabalarga farazlarni ilgari surish imkoniyatini taqdim etadi; evristik topshiriqlar talabalar bilan professor-o'qituvchilar orasida o'zaro hamkorlik va muloqot muhitini vujudga keltiradi; evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarga mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi; evristik topshiriqlar professor-o'qituvchilarning talabalar bilimini turli usullarda nazorat qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi; evristik topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv faoliyatni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Evristik topshiriqlar o'zida muammoli hamda rivojlantiruvchi xarakterdagi topshiriqlarni ham mujassamlashtiradi. Ma'lumki muammoli topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy hamda intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli topshiriqlar yordamida mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlar tashkil etiladi. Muammoli topshiriqlarni bajarish davomida talabalar o'zlashtirgan kasbiy bilimlarini qayta eslash, qo'llash va faollashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotlar tahliliga ko'ra evristik topshiriqlar – pedagogik bilimlarni ijodiy o'zlashtirishning muhim vositasi bo'lib, unda noma'lum bo'lgan bilimlarni izlab topishga talabalarni undaydigan shartlar o'z ifodasini topadi. Bunday savollarga javob topish maqsadida bo'lajak o'qituvchilar ijodiy fikrlashga harakat qiladilar. Ular, pedagogik bilimlarda ifodalangan aniq dalillarni refleksiya qilish, ular orasidagi aloqadorlikni aniqlash va pedagogik jarayonni optimallashtirishga xizmat qiladigan jihatlarni ko'rsatishga harakat qiladilar.

Buning natijasida ularning o'zlashtirgan kasbiy bilimlari faollashadi. Biz quyidagi rasmda evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarda shakllanadigan bilimlar yo'nalishlarini ifodalaganmiz (1- rasm).



1- rasm. Evristik topshiriqlar vositasida rivojlanadigan pedagogik bilimlar yo'nalishi

Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchining evristik topshiriqlarni bajarish natijasida vujudga kelgan kasbiy kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- kasbiy bilimlar va ijodiy faoliyat tajribasi; pedagogik jarayonni tashkil etishga oid amaliy harakatlar, o'quv- biluv harakatlari; kasbiy ko'nikmalar, kasbiy malakalar, kreativ faoliyat tajribasi.

Dissertatsiyaning "Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishu pedagogik shart-sharoitlari" deb nomlangan ikkinchi bobida evristik ta'limning xarakterli jihatlari, pedagogik imkoniyatlari aniqlanib, evristik topshiriqlarning tarkibiy asoslari, yo'nalishlari, evristik yondashuvni samarali amalga oshiri usullari keng yoritilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik jarayonlarni tashkil etish usullari, bosqichlari va strategiyalari, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik topshiriqlarning pragmatik va integrativ xarakter kasb etishini ta'minlash imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Oliy pedagogik ta'lim didaktikasida evristik yondashuvlar alohida o'ringa ega. Uzoq yillar mobaynida pedagoglar evristikaga o'qitish metodlaridan biri sifatida yondashib keldilar. Evristika shaxsning mustaqil, ijodiy tafakkuri, o'y-hayoli yordamida qo'yilgan topshiriqlarni bajarish usulidir. Evristika uchun xarakterli jihatlardan biri ikkita tarkibiy qismining uyg'unlashuvidir. Ular: psixologik-sub'ektiv hamda ratsional-mantiqiy, ob'ektiv qismlarning uyg'unlashuvidan iborat pedagogik xodisa hisoblanadi. Shunga ko'ra evristika tushunchasi doirasida shaxsning nafaqat intuitiv, balki, mantiqiy fikrlash faoliyati ham tushuniladi.

Evristika umumdidaktik usullar majmui bo'lib, undan maqsadga muvofiq tarzda foydalanilganda talabalarda umumiy izlanish strategiyalarini shakllantirib, o'quv tadqiqotchilik vazifalarini bajarish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Talabalarning evristik faoliyati pedagogik-psixologik tadqiqotlarning ob'ekti bo'lib kelmoqda. Talabalarning bunday faoliyatiga nisbatan ta'limiy-ijodiy vaziyat tushunchasi ham qo'llaniladi. Evristik o'qitish jarayonida tashkil etiladigan vaziyatlar, savol va topshiriqlar, birinchi navbatda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan rivojlantiruvchi xarakter kasb etadi.

O'quv jarayonida evristik topshiriqlar tizimidan foydalaniladi. Bu turdagi pedagogik jarayonlar sirasiga maqsadni aniqlash vaziyatlari, evristik subhatlar, ixtirochilik, metapedmet xarakterdagi darslar, ischan o'yinlar, evristik ma'ruzalar va seminarlar, konferensiyalar, talabalarning ijodiy loyihalarni himoya qilish, refleksiya asoslangan darslarni kiritish mumkin. Kreativ xarakterdagi mashg'ulotlar konsentrlashgan mashg'ulotlar bo'lib evristik yuklamaga ega. Bunday mashg'ulotlar ilmiy ijodiy haftaliklar, evristik olimpiadalar va talabalarni kasbiy ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni o'z ichiga oladi. Evristik ta'lim metodlari professor-o'qituvchilar uchun metodik instrumentariy vazifasini o'taydi. Bunday metodlar sirasiga empatiya, gipoteza, norma ijodkorligi, ramziy hamda obrazli ko'rish, birgalikda o'qib o'rganish va o'zaro bir birini baholash, tushunchalarni konstruksiyalash, prognozlash, giperbolizatsiya, inversiya, miyaga hujum va boshqalarni kiritish mumkin. Biz quyidagi rasmda evristik o'qitish jarayoni loyihalarni keltirdik(2-rasm).




2-rasm. Evristik o'qitishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni loyihasi

O'quv jarayonida ochiq xarakterdagi evristik topshiriqlardan foydalanish maqsadi ularning turli maqsadlarga asoslangan tasnifini ishlab chiqishni taqozo etdi. Evristik faoliyat turiga ko'ra topshiriqlar kognitiv, kreativ hamda tashkiliy faoliyatli topshiriqlarga bo'linadi. O'quv kasbiy faoliyat turiga ko'ra esa o'quv, kvazi-kasbiy hamda ilmiy tadqiqotchilikka oid topshiriqlardan iborat. Mustaqillik darajasiga ko'ra mustaqil bajaradigan, professor-o'qituvchi bilan birgalikda bajariladigan hamda guruhli bajarishga mo'ljallangan topshiriqlar o'z ichiga oladi. Evristik topshiriqlar bajarilish o'rniga ko'ra auditoriyada, pedagogik amaliyotda hamda talabalarining bo'sh vaqtida, mustaqil bilim olish vaziyatlarida bajariladigan topshiriqlarga ajratiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini evristik topshiriqlar yordamida rivojlantirish jarayonini loyihalash talabalar o'z faoliyati natijalarini bir qator yo'nalishlarda mustaqil loyihalash, o'zining shaxsiy kasbiy maqsadlarini anglash, o'z o'zini takomillashtirish imkonini beradi. bu esa o'z navbatida kasbiy kompetensiyalarni takomillashuvini ta'minlaydi. bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- muayyan o'quv jarayonida bo'lajak o'qituvchining rivojlanish istiqbollari ta'minlash mexanizmlarini qo'llash;
 - bo'lajak o'qituvchining akmeogramma (bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-kasbiy rivojlanishi)ni boyitish;
 - bo'lajak o'qituvchi kasbiy rivojlanishining individual rejasini tuzish;
 - bo'lajak o'qituvchining mavqei va istiqboldagi taraqqiyot traektoriyasini belgilash.
- bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning individual taraqqiyot rejasini tuzish turkumli xarakterga ega bo'lgan besh bosqichda amalga oshadi(3-rasm).



3-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari

O'qitish texnologiyalari uchun xos bo'lgan jihatlari:

- tizimlilik yoki izchillik – bunda talabalar faoliyatining tizimli tarzda tashkil etilishi nazarda tutiladi;

- muntazamlik xarakteriga egalik – har bir texnologiya turli fanlarni o'qitish jarayonida ko'plab professor-o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi mumkin;

- natijadorlik – pedagogik jarayonning maqsadlariga mos keladigan natijalarga erishiladi, bu esa diagnostik maqsadlar qo'yish va o'quv jarayoni natijalarini diagnostika qilish metodikalarini qo'llashni taqozo etadi.

O'qitishning bunday shakllar sirasiga loyiha faoliyati, nstandart shakldagi mashg'ulotlarni tashkil etish hamda interaktiv xarakterdagi o'quv jarayonlarini kiritish mumkin.

Evristik o'qitishda samarali hisoblangan ta'lim texnologiyalari: loyihalash, muammoli-modulli o'qitish, reproduktiv xarakterdagi pedagogik texnologiyalar, rivojlaniruvchi muammoli texnologiyalar, evristik ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, interaktiv texnologiyalar, motivatsion xarakterdagi pedagogik texnologiyalar, modellashtirish texnologiyasi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak o'qituvchilarga fanlararo aloqadorlikka asoslangan evristik topshiriqlarni taqdim etish asosida oliy ta'lim pedagogik samaradorligini ta'minlash imkoniyati kengayadi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladigan amaliy faoliyatga yo'naltiruvchi evristik topshiriqlarni taqdim etish maqsadga muvofiq. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni ishlagiga jalb qilishda ularning jamoa bo'lib kontentlarni yaratishga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning e'tiborini STEAM ta'limiga e'tibor qaratishga jalb etish ham ularda kreativ faoliyat tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar bilan muammolarni kreativ yechishga yo'naltirilgan treninglar, seminarlar tashkil qilish, dizayn-fikrlash texnologiyasi, jamoa bo'lib samarali ishlash, emotsional-intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish ham ularda kasbiy kompetensiyalarning takomillashuvini jadallashtiradi.

Dissertatsiyamning uchinchi bobi "Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik tizimi" deb nomlangan bo'lib, evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni va uni amalga oshirish bosqichlari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik topshiriqlarni bajarishda foydalaniladigan usul, metod, texnologiya va strategiyalar, evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining modeli va uni amaliyotga tadbiiq etish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida dashtlab talabalarining kreativ fikrlar faoliyati rivojlantirildi. bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun professor-o'qituvchilar quyidagi metodlardan foydalanishlari lozim: muammoni

to'liq idrok etishga talabalarni undash metodi; talabalarining e'tiborini evristik kuzatishga jalb etish metodi; tadqiqotchilik, loyihalash, modellashtirish metodi; yaxlitlash, mustaqil bilim olishga undash, kasbiy harakatlarni rejalashtirishga undash, refleksiylash metodi; evristik topshiriqlarni bajarishda hamkorlikda ishlash metodi.

Evristik topshiriqlar ustida ishlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlar muammolarni ko'ra olish, tushunish, ularga yechim topish va uning nstandart usullarini qo'llash, topshiriqning xarakterli jihatlarni ko'ra olish, pedagogik xodisalariga turli nuqtai nazardan yondashish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. talabalarda evristik topshiriqlarni bajarish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon o'ziga xos belgilarga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar sirasiga pedagogik jarayonlarni loyihalash kompetensiyasi kiradi. pedagogik jarayonlarni loyihalash bir qator didaktik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. pedagogik jarayonlarni loyihalash 3 bosqichda amalga oshiriladi: a) pedagogik jarayoni modelini yaratish; b) pedagogik jarayon loyihasini ishlab chiqish; v) pedagogik jarayoni konstruksiyalash.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishida didaktik ijodkorlik muhim o'rinni egallaydi.

Bo'lajak o'qituvchining didaktik ijodkorligi bir qator holatlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, o'zining kasbiy faoliyati natijalarini baholash, ota-onalar bilan hamkorlik qilish metodlarini bilishlari, shaxsga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlarni tashkil eta olishlari, o'quvchilarning yoshi, dunyoqarashi, bilim darajasiga mos didaktik o'yinlarni tanlay olishlari, o'quvchilarni kompleks rivojlantirish maqsadida zarur ma'lumotnomalardan foydalana olishlari, o'quvchilar uchun intellektual rivojlanish vaziyatlarini yaratish olishlari, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun qulay sharoitlarni taqim eta olishlari, o'quvchilarning mutolaa va musiqiy ijodkorlik bilan tizimli ravishda shug'ullanishlari uchun qulay imkoniyatlarni yaratish olishlari kabilar.

M.V.Klarining ta'kidlashicha, pedagog ta'lim jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, ushbu jarayon ta'lim oluvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini shakllantirish imkoniyatini yaratishga xizmat qilishi lozim.

Shaxsning, shu jumladan bo'lajak o'qituvchining ijodiy tafakkuri quyidagi xususiyatlarga ega.

- pedagogik faoliyat usullarini o'zlashtirish va keng ko'lamda qo'llay olish;

- muayyan vaziyatlarda pedagogik bilimlar transformatsiyasini amalga oshirish kompetensiyasiga ega bo'lish;

- muammoli vaziyatlarni yaratish va unda maqbul yechimga kelish usullarini tanlay olish kabilar.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida evristik metodlar kognitiv metodlar bilan parallel tarzda qo'llaniladi. Kognitiv xarakterdagi topshiriqlar ham evristik topshiriqlar kabi bo'lajak o'qituvchini mustaqillikka, izlanishga, ijodiy fikrlashga, murakkab pedagogik xodisalarni tahlil qilishga undaydi. Biz buni quyidagi rasmda ifodalashga harakat qildi:

1-jadval
Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi evristik topshiriqlar

Evristik topshiriq	Motivatsion faoliyat
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-ijodiy faollikka undovchi topshiriqlar	Ijodiy fikrlash
Refleksiv jarayonlarga olib kiruvchi topshiriqlar	O'z-o'zini tahlil qilish
Bo'lajak o'qituvchilarda modellashtirish loyihalash, maketlar ustida ishlash imkonini beradigan topshiriqlar	O'z g'oyalarni ilgari surish
Talabalarni o'zaro bir-birlariga evristik savollar yordamida murojaat qilishga undovchi topshiriqlar	Dialogga kirishish
Pedagogik g'oyalarni qiyoslashga yo'naltirilgan evristik topshiriqlar	Pedagogik jarayonlarni qiyoslashga o'rganish
Bir necha dalillarni o'zaro bir-biridan farqlash imkonini beradigan evristik topshiriqlar	Tashxislash faoliyatini amalga oshirish
Talabalarni evristik kuzatishga undovchi topshiriqlar	Aniq ma'lumotlar ustida ishlash
Evristik xarakterdagi topshiriqlarni tanlash va ularni loyihalashga undovchi topshiriqlar	Turtli loyihalarni tashkilloshirish
Evristik topshiriqlar ustida ishlash jarayonlarini modellashtirishga undovchi topshiriqlar	Mutaqil model ishlab chiqishga harakat qilish
Farazlarni ilgari surish imkonini beradigan evristik topshiriqlar	O'z g'oyasini taqdimot qilish

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik xarakterdagi topshiriqlarni tanlashda muayyan prinsiplarga tayanish talab qilinadi:

- bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan evristik topshiriqlarning ta'lim mazmuni va o'quv jarayoni maqsadlariga muvofiqligini ta'minlashi;
 - evristik topshiriqlar o'zining mazmuni va xarakteriga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning bilim darajalari kasbiy qiziqish va motivlariga mos kelishiga erishilishi;
 - evristik topshiriqlarni ijtimoiy tajriba va pedagogik nazariyalarga tayanigan holda tanlanilishi;
 - evristik topshiriqlar talabalarining mustaqil izlanishi, kreativ va mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishi, madaniy pedagogik modellardan foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratishiga erishilishiga xizmat qilishi kabilar.
- Evristik topshiriqlar davra subbattlari, seminarlar, konferensiyalar, treninglar jarayonida ham amal qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar o'zlashtirgan kasbiy bilimlarni qo'yilgan muammolarni bajarish jarayonida tatbiq eta olishlari muhim ahamiyatga ega. Evristik topshiriqlar yordamida bo'lajak o'qituvchilar izlanish xarakteridagi

o'quv harakatlarini amalga oshiradilar. Jumladan, pedagogik xarakterdagi muammoli vaziyatlarni refleksiyalash, turtli muammolarga yechim izlash, farazlarni ilgari surish, o'zlashtirgan kasbiy bilimlar va harakat usullarini yangi vaziyatlarga transformatsiyalash kabi harakat usullarini qo'llaydilar.

Evristik topshiriqlar ustida ishlashda talabalarining induksiya metodidan foydalanishlariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki induksiya metodi bo'lajak o'qituvchilarda induktiv xulosalar chiqarish, olingan natijalarni umumlashtirish, farazlarni ilgari surish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Deduksiya metodi ham bo'lajak o'qituvchilarda evristik topshiriqlar ustida ishlash tajribasini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu metod deduktiv xulosalar chiqarish, pedagogik hodisalarni har tomonlama tahlil qilish, umumiy holatlarda xususiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Biz ushbu metodlarni taklif qilishda A.V.Xutorskoyning evristik o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga tayanidik. Ushbu klassifikatsiya evristik topshiriqlarni bajarish jarayonida talab qilinadigan metodlarni tanlash va qo'llash uchun asos yaratadi. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar quyidagilarni o'zlashtirishlari lozim:

- 1) pedagogik bilimlarni o'zlashtirishlari va ularni o'z amaliy faoliyatlarida qo'llay olishlari;
